



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCES.UZ

**30 APREL
№27**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
14 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-14**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва ақтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Davlatova Hafiza Zamirovna TASVIRIY SAN'AT NAZARIYASI, UNING TUR VA JANRLARI	7
2. Искандарова Тухтажон Солиевна МИРЗО УЛУҒБЕКНИНГ АСТРОНОМИЯ СОҲАСИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ	9
3. Mamatxonova Shahrizod Bahodir qizi RANGTASVIR DARSLARIDA RANGLARNING O'RNI VA JILOSI.....	11
4. Yusupova Shohista Alimjanovna, Akramova Gulbaxor Ashrab qizi МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALAR DARSLIDA RANGTASVIR FANINI АНАМИЯТИ	13
5. Yusupova Shohista Alimjanovna, Mamatqulova Oychiroy Furqat qizi YURTIMIZDA TASVIRIY SAN'ATGA BO'LGAN E'TIBORNI KUCHAYTIRISHNING MUHUM АНАМИЯТЛАРИ	14
6. Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, G'aniyeva Charos Hasanovna KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI.....	15



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

TASVIRIY SAN'AT NAZARIYASI, UNING TUR VA JANRLARI

Davlatova Hafiza Zamirovna

Navoiy viloyati 43 – maktab
Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy san'at turlari janrlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at nazariyasi, tur va janrlari, qalamtasvir texnologiyasi, akvarel, guash, tempera, moy bo'yoq texnologiyasi. Qalam turlari va ularni ishga tayyorlash.

San'atning turlari juda ko'p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko'chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo'lmay qoladi. San'atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo'lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o'zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o'z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan olijanob, mard kishilar obrazini ko'rib, undan g'ururlanadi (chunki rassom ham g'ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o'rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvirlangan bo'lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o'zida shunday xususiyatlar bo'lmasligi uchun harakat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari san'atning boshqa turlari - adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga faol ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at asarlari ko'rish uchun mo'ljallangan san'atdir. Uni ko'rish orqaligina zavq olish mumkin.



Grafika. Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san'atidir. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi.



Rangtasvir. Tasviriy san'atning ikkinchi bir turi rangtasvir san'atidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o'rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o'tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko'rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiylikini, hajmini ko'rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o'zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko'ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo'linadi.

Haykaltaroshlik. Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o'rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi.

Dekorativ-amaliy san'at. San'atning keng tarqalgan turlaridan biri dekorativ amaliy san'atdir. Bu san'at hayotda ishlatiladigan buyumlar, idish-tovoq, kiyim-kechak, mebel, gilam, o'yinchoqlar va boshqa shu kabilalarni bezatishni o'z ichiga oladi. Dekorativ-amaliy san'at asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofga, park-bog', uylarning tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritish vazifalariga xizmat qiladi. Bu san'at dastgoh san'atidan o'zining bevosita xalq ehtiyojiga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmunidan kelib chiqadi va shunga bo'ysunadi. Dekorativ-amaliy san'atda real voqealiklar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar), aks etishi mumkin, lekin ular mustaqil xarakterga ega bo'lmaydi hamda ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'liq bo'ladi. Tasvirlangan voqealarda shartli elementlar keng o'rinni egallaydi. Dekorativ san'at buyumlari birmuncha erkin, ijodkor fantaziyasiga bog'liq holda yaratiladi va eng avvalo, tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomoniga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymatov B. "Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari" darslik Toshkent
2. 1995 yil. 3. Boymetov B "Portret qalam tasvir" Toshkent 2001 yil. 4. Tojiev
3. B. "Qalam tasvir asoslarini o'rganish" Toshkent 1994 yil.



МИРЗО УЛУҒБЕКНИНГ АСТРОНОМИЯ СОҲАСИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Искандарова Тухтажон Солиевна
Хоразм вилояти Янгибозор тумани
1сон умумий ўрта мактаб
физика фани 2- тоифали ўқитувчиси
+998994470743

Аннотация: Мазкур мақолада темурийлар сулоласи вакили буюк олим мирзо Улуғбекнинг астраномия фанида қилган ютуқларига бағишланади.

Калит сўзлар: Секстант, расадхона, эклиптика, Зижи кўрагоний.

Мирзо Мухаммад ибн Шохрух ибн Темур Улуғбек Курагоний буюк астроном ва математик, ўз даврининг атоқли алломаси, давлат арбоби, Мавароуннахрни 1441- 1449 йилларда бошқарган, машхур ҳукмдор Амир Темурнинг набираси бўлган.

Ёшлигидан Улуғбек фан ва санъат турларига, айниқса математика ва астраномияга катта қизиқиш билдирди. Унинг ақлий ва дунёқараши кенгайишида отаси ва бобоси тўплаган бой кутубхона замин бўлди. Улуғбек у вақтлар ўлчови билан қараганда, жуда яхши таълим олган. Ажойиб хотира эгаси бўлиб, араб ва форс тилларида эркин эгаллаган. Улуғбекнинг устози таниқли олим Темурийлар саройидаги машхур математик ва астроном Қозизода Румий бўлган. У тўққиз яшар вақтида устози билан Марогиядаги машхур расадхонанинг харобаларини бориб кўришади. Мирзо Улуғбек ўша расадхонани синчиклаб куриб чиққач катта таъсуротлар билан Самарқандга қайтади.

XV асрнинг биринчи ярмида Улуғбекнинг атрофида Ғиёсиддин Жамшид, Қозизода Румий, Али Қушчи каби таниқли астроном ва математиклар жамланган бутун бир илмий мактаб вужудга келди. Мирзо Улуғбек Самарқандда, Бухоро ва Ғиждивонда мадрасалари курдиради. Аммо унинг катта иштиёқи астраномия булган. Улуғбек 1428 йилларда астрономик расадхона қурилишига катта эътибор қаратади. Расадхона ўз даврининг нодир бинноси бўлган. Ер силкинишига бардошли бўлиши учун бино қурилиши учун Кўҳак тепалигининг тошли этаги танланган. Унинг баладлиги 30,4м дан иборат 3 қаватли қилиб қурилган. Унда ўндан ортиқ турли астрономик қурилма ва асбоблар бўлган. Улардан энг асосийси радиуси 40,2м қўшалок ёйдан иборат квадрант қурилма ҳисобланади. Квадрантнинг жанубий қисми ер остида, қолган қисми шимолий томонда ер сатҳидан 30 метр баландда жойлашган. Асбоб айланасида бир градус ёй 701,85мм ва бир минут ёй 11,53 мм га тўғри келади. Асбоб астраномиянинг асосий доимийликлари экватор ва эклиптика орасидаги бурчакни ўлчаш, йиллик прецессия доимийсини, тропик йил давомийлигини ва бошқа фундаментал астрономик доимийликларини аниқлашга имкон берган. Расадхонада кичик ўлчамли асбоблар: армилляр сфера, 2,4 ва 7 ҳалқадан иборат ўлчов асбоблари, триангула, куёш ҳамда юлдуз соатлари, устурлоб ва бошқалар бўлган. Бу илмий ускуналар ёрдамида Куёш, Ой, саёралар ва алоҳида юлдузлар кузатилган. Асосий асбоб Секстант (бурчак ўлчагич) жанубдан шимол томон меридиан чизиқлари бўйлаб мўлжалланган. Асосий асбобдан ташқари, расадхонада бошқа астрономик анжомлар ҳам бўлган. Буюк астроном раҳбарлигида Улуғбек 1018 та юлдуз жойлашувини аниқлади. Расадхонада эклиптикнинг экваторга қиялиги ва юлдуз йилининг узунлигини белгилаш; синуснинг бир бурчакдаги аҳамиятини муҳим астрономик доимийликни ўн саккизинчи баландигача аниқликда ҳисоблаш бўйича ишлар олиб борилган.

Улуғбек ўз маълумотларини бир неча бор текшириб, унинг сонларини тўғри, деган хулосага келади. 1437 йил у астрономик йил узунлигини аниқлайди: 365 кун 6 соат 10 дақиқа 8 сония. Кейинроқ ўзгаришлар фарқи 58 сония эканлиги аниқ бўлган. Улуғбекнинг “Зижи” тўрт йирик қисмдан иборат. Ушбу асарда у 247 шаҳарнинг ва аҳоли яшайдиган пунктларини жуғрофий координаталарини белгилаб берди. Биринчи қисмда “Хронология” номини олган бунда турли халқларнинг хронологик усуллари қабул қилинган. Иккинчи қисмда амалий астраномия масалалари ифодаланган. Учунчи қисмда дунёнинг геомаркази тизими асосида кўзга кўринарли юлдузлар ҳаракати ҳақида маълумот берилган. Тўртинчи қисмда астрологияга бағишланади. Мирзо Улуғбек ҳисоблаб чиққан 1018 юлдуз туркуми қадимий хронологияни ўрганувчи астрономлар ва тарихшунослар учун компас



вазифасини ўтайди. Унинг юлдузлар жадвали “Альмагест”да келтирилган Птоломейнинг юлдузлар харитасини тасдиқлайди. Альмагест асарида ер дунёнинг марказида барча осмон жисмлари унинг атрофида айланишини келтирилган. Мирзо Улуғбекнинг астронимик тадқиқотлари бутун дунёга тарқалди. Европада унинг рисолалари бир нечта тилларга таржима қилинди. Харита тузиш, қарвон йулларини қуриш, йил фасилларини аниқлашда катта аҳамиятга эга бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бартольд В.В Улуғбек и его время. М.,1964
2. Кори – Ниязов. Т. Астрономическая шеола Улуғбека. М.,1950г.
3. Б. Ахмедов. Мирзо Улуғбек Мухаммад Тарағай. Фан.,1994й.
4. Б.Ахмедов. Мирзо Улуғбек”Тўрт улус тарихи”Т.,1996й
5. В. Вяткин Обсерватория Улуғбека. М.,1954г



qo`shilishi natijasida oq rang hosil bo`ladi. Biroq sariq va havo rang bo`yoqlarni aralashdirsak yashil rang hosil bo`ladi. Demak, ikkita rangni optic aralashtrish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o`zaro to`ldruvchi (qo`shimcha) hisoblanadi. Masalan: to`q qizil va yashil, zangori va zarg`aldoq, qizil sariq, havo rang, sarg`ish yashil va binafsha ranglar o`zaro to`ldruvchidir.



Tajribali rassomlar yorug`lik ranglari ta`siridagi tab mohirona tasvirleydilar. iatda sodir bo`layotgan nozik o`zgarishlarni ham bo`yoqlar vositasida mohirona tasvirleydilar. Naturadan tasvirlanayotgan rang lavha koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yorug`lik manbai bilan yoritilganligiga bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Hasanov. Maktab tasviriy san`atni o`rgatish metodikasi.
2. B.N.Oripov. tasviriy faoliyat metodikasi. "ilmiy Ziyo" T.: 2017 y.
3. N.Rostoven. O`rta maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. M:1980 y.



МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALAR DARSLIDA RANGTASVIR FANINI AHAMIYATI

Yusupova Shohista Alimjanovna

Guliston davlat universiteti, Guliston shahri

Tasviriy san'at o'qituvchisi

Tel: +998999030286

Akramova Gulbaxor Ashrab qizi

"San'atshunoslik" fakulteti, Tasviriy san'at

va muhandislik grafikasi kafedrası

71-20 guruh talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at fanining o'qitishning maqsad va vazifalari. Rangtasvirning inson hayotida muhim ahamiyati. Ranglarning o'ziga hos xususiyatlari va o'quvchilarga ta'siri. Tasviriy san'at o'qituvchilarining dars o'tishdan maqsadi haqida ma'lumotlar misol keltirilgan.

Kalit so'zlari: tasviriy san'at, rangtasvir, o'qituvchi, maktab, ijod, rang, fan, psixologiya, joziba, bolalar, maqsad, qizil, yashil, umumta'lim, go'zallik

Umumta'lim maktabi o'quvchilariga tasviriy san'at fanini o'qitishda maqsad, tabiatning va tasviriy san'at asarlaridagi go'zallikni ko'ra bilish va idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasini o'stirish, rangni sezish, fazoviy tasavvurni kuchaytirish, kuzatuvchanlikni va badiiy ijodiy qobiliyatlarni o'stirishdan iboratdir.[1.4b] Ushbu maqsadlarni inobatga olib, maktab davridagi bolalarga rangtasvir fanini chuqurroq o'rgatish muhim omillardan biridir. Ba'zi maktab yoshdagi bolalar maxsus maktablariga borib bu sohani darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'rganishadi. Agar maktab darsligiga bu fan kiritilsa, bolalar fanni yanada chuqurroq o'rganishadi, hamda maxsus maktablariga borib, o'rganishga nisbatan qiziqish yanada ortadi. Ular o'z tengdoshlari hamda, sinfdagi barcha o'quvchilar bilan bir qatorda o'rganishadi. Rangtasvir fani hamma bilishi kerak bo'lgan fanlardan biri bo'lib xisoblanadi.

Ranglarning kishi ruhiyatiga ta'siri o'ziga xosdir. Ranglarni tabiatda insonlarning o'zlari tanlaydilar. Shu sababli maktab yoshdagi bolalarga ranglarni chuqurroq o'rgatish muhimdir. Har bir bola savodi chiqishidan oldin ranglarni ajarata oladi va o'zi uchun sevimli bo'lgan rangni belgilab olishadi. Albatta, ranglar yordamida o'quvchilarning qaysi rangni yoqtirishi, orqali ularni psixologiyasini o'rganishimiz mumkin. Bolalar psixologiyasi ham shu ranglar bilan bog'liqdir. Qaysi rangni yoqtirishni bilib, uning fe'l-atvorini qanday ekanini aniqlash mumkin. O'qituvchi ushbu olgan ma'lumoti yordamida o'quvchilar bilan kerakli topshiriqni berib muomila qiladi. Masalan, qizil rangni yoqtirgan bolalar barchaning e'tibor markazida bo'lishni va doim birinchi bo'lishni xohlashadi. Yashil rangni yoqtirgan, bolalar esa og'ir vazmin bo'lib doimo tinchlikni yoqtirishadi. Ranglar insonni dam olishiga ham sababchi bo'ladi. Yashil rangni bunga misol tariqasida olsak bo'ladi. Rangtasvir ranglar bilan birgalikda ma'lum bir buyumni shaklini ko'rishni o'rgatadi. Buning uchun rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Biroq, mohir rassom qalamdan foydalanmay ishni bo'yoqlar yordamida tasvirlashi mumkin.

Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darsi haftada bir kun bo'lganligi sababli o'quvchilarning qiziqishlari bu fanga nisbatan chanqoq bo'lib qolmoqda. Yuqorida biz rangtasvir fanining inson hayotida muhim o'rinlarini birma-bir keltirib o'tildi. Agar bu fan umumta'lim maktablarida yanda kengaytirilsa, maktab yoshdagi bolalarning ma'naviy-madaniy, dunyoqashi boy, estetik didli, vatanparvar komil inson bo'lib ulg'ayishi tabiiydir. Har bir o'zbek xalqining orzusi shunday farzandlarni ulg'aytirish. Barcha tasviriy san'at o'qituvchilari kasbini sevib o'z ustida ishlasa, oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Aburasulov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi T.: 2012 y.
2. R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. T.: 2008 y.
3. S.Abdurasulov. N.Tolipov. Rangtasvir. T.: 2019 y.
4. R.Xudoyberganov. Rangshunoslik kompozitsiyasi asoslari. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2019 y.
5. O'.Nurtoyev. "Rangshunoslik asoslari". Ilm -ziyo T.: 2008 y.
6. X.Sultonov. "Rangtasvir" (grizaylda ishlash) metodik qo'llanma T.: 2014 y.



YURTIMIZDA TASVIRIY SAN'ATGA BO'LGAN E'TIBORNI KUCHAYTIRISHNING MUHUM AHAMIYATLARI

Yusupova Shohista Alimjanovna

Guliston davlat universiteti, Guliston shahri

Tasviriy san'at o'qituvchisi

Tel: +998999030286

Mamatqulova Oychiroy Furqat qizi

“San'atshunoslik” fakulteti, Tasviriy san'at

va muhandislik grafikasi kafedrasida

71-20 guruh talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Yurtboshimis tomonidan san'atga berilayotgan e'tiborlari va imkoniyatlari. Tasviriy san'atning inson hayotidagi roli. Bizga berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, o'z san'atimizni boshqa davlatlarga tanishtirish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlari: tasviriy san'at, grafika, asar, ijod, ma'naviyat, inson, fan, joziba, komil, maqsad, maqsad, ta'lim, kelajak, go'zallik

San'atning turlari juda ko'p. Bular adabiyot, musiqa, kino, teatr, raqs, tasviriy san'at va boshqalardir. Barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri bo'lgan tasviriy san'at juda ham keng ma'noga egadir. Tasviriy san'at deyilganda grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik turlari tushuniladi. Me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sarasiga kiradi. Tasviriy san'at inson ongiga juda tez tasir etib, unda ezgu hislar uyg'otadi, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadi. Shu bilan birga tasviriy san'at inson kamolotini shakllantirishga yordamchi kuch xisoblanadi. Aynan mana shu narsa biz ko'zlagan maqsad ya'ni bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimiga ega bo'lishi o'ziga ham, jamiyatga ham suv va havodek zarurdir. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning “Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni qayta tiklash, Kamolliddin Behzodning ijod namunalarini xalqimizga to'la yetkazib berish, sohaga hissa qo'shgan atoqli rassom va ustalarni nomini abadiylashtirish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda mamlakatimizda tasviriy san'at va amaliy san'at, dizayn sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida” bir qancha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Davlatimiz rahbari ijtimoiy ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5ta muhim tashabbusni ilgari surdilar. Birinchi tashabbusda yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu o'sha biz yuqorida ko'zlagan maqsadga qo'yilgan qadamlar deb o'ylaymiz. Teatr, kino ko'rgazmalarga borganda inson o'zini xotirjam va baxtli, kunlik muammolardan bir oz bo'lsa ham holi his qiladi. Shuning uchun jamoat joylarda shunday ko'rgazmalarni tashkil etishimiz jamiyatimizga O'zbekistonimizning milliy tasviriy san'ati nihoyatta go'zalligi, takrorlanmas va dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini borligini bildirishimiz lozim. Evropa mamlakatlariga sayohat, o'qish, yoki ish yuzasidan borganimizda bizning O'zbekiston tasviriy san'atimiz qanchalik boy ekanligini ko'rsatishimiz lozim. O'ylaymizkim har bir honadonda tasviriy san'at asarlari bo'lmog'i lozim, chunki inson asarlarga qaraganda yengillashadi, hayotning yaxshi-yomon taraflarini ko'rishga o'zida kuch topishida ko'maklashadi, shunday asarlar borki, inson o'z hayotiga shukronalar aytadi va hulosa chiqaradi. Bunday tushunchalarga ega bo'lgan odam kelajakdan umidlari katta bo'ladi yuksak pog'onalariga ko'tarilishni, boshqalarga to'g'ri yo'l ko'rsatishni yurtimizni farovon va taraqqiy etishini xohlaydi. Xulosa qilib aytganda bo'lsak, fransuz faylasufi Jan Mari Gyoto: “San'atning eng yuksak maqsadi inson yuragini urishdir va yurak hayotning markazi ekan san'at doimo insoniyatning butun axloqiy va moddiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak” shu bois har bir soha ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga qayta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Barcha san'at va go'zallik olamini bilish hamma sohalarda jadal rivojlanishiga, bu esa vatanimiz gullab-yashnashida imkoniyatlar yaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. T.: 2017 y.
2. S.Aburasulov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi T.: 2012 y.
3. R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. T.: 2008 y.
4. N.Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. T.: 2007 y.
5. N.Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T.: 1997 y.



KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich

Guliston davlat universiteti doktoranti,
nabijumaboyev@gmail.com, Q998996421785

G'aniyeva Charos Hasanovna

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tiborli bo'lish kerakligi, bugungi yosh avlod ertangi kunimiz egalari va kelajagi ekanligi aytilib, unda tasviriy san'atning ham alohida roli borligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, yosh avlod, kelajak, tasviriy san'at, badiiy tafakkur, estetik did, tasavvur, idrok, go'zallik.

Har bir tug'ilgan murg'ak go'dak ertangi kunimiz asoschisi – kelajak poydevorimizdir. Bugun yerga ekilgan niholning mevasi ertaga o'z hosilini beradi. Yaxshi parvarishlangan nihol o'sib yaxshi baquvvat daraxt bo'ladi va mo'l hosil beradi. E'tiborsiz qoldirilgan nihol esa tarvaqaylab o'sib ketadi va umuman meva bermaydi. Buni inson umriga qiyoshlash mumkin. Shunday ekan, biz bugungi yosh avlod tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishimizni davrning o'zi talab qilmoqda. Hozirdan yosh avlodning qalbini mehr bilan, ezguliklar bilan to'ldirib borsak, bolada barcha ijobiy hislatlar shakllanib boradi. Bu albatta ertaga o'z hosilini beradi. Bunga qadimdan otabobolarimiz qattiq e'tibor berib kelishgan, ularning bosh maqsadi oilasini, o'z vatanini sevadigan, himoya qiladigan, kerak paytda o'z manfaatlaridan vatan manfaatlarini ustun qo'yadigan, bir so'z bilan aytganda “komil” insonni tarbiyalash oliy o'ringa qo'yilgan. Uzoq o'tmishdan to'planib kelingan eng yaxshi ta'limiy-tarbiyaviy tajribalarni qo'llashga harakat qilib kelishgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarimizga ta'lim berish jarayonida ularning qalbida tasviriy san'atga bo'lgan mehr uchqunlarini socha olsak biz kattalar oldimizga qo'yan maqsadlarimizni ma'lum qismini to'ldirgan bo'lamiz. Sababi tasviriy san'at insonni mehnatga, badiiy tafakkurini yuksaltirishga, estetik dunyoqarashini shakllantirishga, tabiatni his qilishga, uning ajralmas bir bo'lagi ekanligiga, yon atrofimizdagi har bir narsaning go'zalligini his qila olishga chorlaydi. Tasviriy san'at o'quvchi yoshlarimizga faqatgina go'zallik, ilm-tafakkur beribgina qolmay inson ongining yetuk jihatlari ya'ni ko'rish, kuzatish, hayolda analiz-sintez qila olish, idrok etish va hayoliy tasavvurlarni yanada kengaytirish borasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Endigina ma'naviy dunyosi shakllanib kelayotgan yoshlarimiz turli xil predmetlar bilan tanishib, ularning bir-birlariga nisbati, shakl-u shamoyili, chiroyli elementlarini aniqlaydilar va har bitta narsaga sinchiklab razm solib rang tuslarini o'rganadilar. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarning zehni o'tkirlashib hayolot dunyosi kengayadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari ma'naviy dunyoni kengaytiribgina qolmay bolaning ko'rish a'zolarini ham takomillashtirib boradi. Chunki har bir mashg'ulotda narsalarni diqqat bilan kuzatib, butun hayolini bir joyga jamlab, e'tiborini bir nuqtaga qaratishni o'rganadi.

“Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?” degan savol ustida o'ylashimiz nafaqat o'ylashimiz balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim” (I. Karimov. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir”). Ana shunday yondashuvlar asosida biz kattalar yo'l tutmog'imiz darkor. Ertangi yorug' va shon-sharaffi kunlarimiz uchun bugun harakat qilib yahshi natijalarga erishmog'imiz lozim.

Umuman olganda o'quvchi yoshlarimizning har tomonlama rivojlanib barkamol avlod sifatida tarbiyalanishida tasviriy san'atning o'rni beqiyosdir. San'atga oshni qalblardan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir”. T.: “O'zbekiston” 2015 y.
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova. Rangtasvir. T.: “O'zbekiston” 2006 y.
3. Sh.Qobilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiya. 2014 y.
4. R.Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T.: 2008 y.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(14-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000